

## **ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN FE‘LLARNING II BOB MASDAR FORMALARI**

**Uzoqova Yulduzxon Dilshodbek qizi**

Andijon davlat universiteti talabasi

**Umarov Adahamjon Abdusalomovich**

Andijon davlat universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan fe‘llarning II bob masdar shakllari semantikasi, qo‘llanilish qamrov doirasi tahlil qilingan. Badiiy matnlardan olingan misollar orqali yanada keng tadqiq qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zlashmalar, masdar, manba, leksika, fe‘l, arab tili, o‘zbek tili, semantika.*

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili ma’naviy qadriyatimizdir. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tilga kamdir-ko‘pdir ta’sirlar bo‘lib turadi, yangi o‘zlashmalar kirib keladi, so‘z boyligi shakllanadi. Ko‘plab xalqlar kabi o‘zbeklar ham qadimdan boshqa xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqada bo‘lgan, shu sababli tillar bir-biriga ta’sir o‘tkazgan. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida, albatta, ichki manbalar asosiy o‘rin tutadi, lekin tilimiz uchun o‘z qatlam imkoniyatlari kifoya qilmaydi. O‘zbek tili boyishida tashqi manbalar ham ahamiyatlidir. Umuman, hech bir til sof holda yashab, shakllana olmaydi.

O‘zbek tili qadim vaqtlarda o‘z leksikasini fors-tojik, arab, mo‘g‘ul, xitoy, uyg‘ur tillari va XIX asr 60-yillaridan e’tiboran rus tili bilan munosabatda bo‘lib boyitib kelmoqda. Umumxalq o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirgan so‘z-termin va ayrim affikslardan har qaysi tarmoqda, jumladan, kasb-hunarda, termin tuzishda keng foydalaniladi.<sup>1</sup>Tilimiz rivojiga ahamiyat berar ekanmiz, unda o‘zlashgan so‘zlar salmoqli o‘rinda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tiliga, asosan, arab, fors-tojik, rus tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. Ayniqsa, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar katta miqdorni tashkil etadi.

Filologiya fanlari nomzodi Fattoh Abdullayev o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabizmlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarida o‘zbek tilida 55 % arab so‘zlari borligini ta’kidlagan<sup>2</sup>.

“Bunday so‘zlarning o‘zbek tili lug‘atiga ko‘plab olinishi islom dini O‘rta Osiyoga kirib kelgan davrlardan boshlangan bo‘lib, o‘zbek tiliga, asosan, bevosita

<sup>1</sup> Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси II-III. -Тошкент:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1959.

<sup>2</sup> Internet ma’lumoti: <https://cyberleninka.ru/> sayti

(arab tilida yozilgan manbalardan) yoki bilvosita (fors tilida yozilgan manbalardan) o'tgan''<sup>1</sup>

Arab tili bizga VIII asrda islom dini orqali kirib kelgan. Kundalik hayotimizda arab tilidan o'zlashgan so'zlarni juda ko'p hollarda qo'llaymiz. Ularni sof o'zbekcha so'zlardan farqlash uchun bir qancha adabiyotlarda ba'zi bir o'rinlarga ahamiyat berishimiz kerakligi aytib o'tilgan. Masalan, bo'g'iz undoshi ishtirok etgan so'zlar yoki tarkibida tutuq belgisi mavjud bo'lgan so'zlar arab tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Arabcha o'zlashmalar o'zbek tiliga semantik jihatdan ham moslashgan. Arabcha so'zlar ma'nosidagi semantik taraqqiyot uzoq davr mobaynida o'zbek tilining kommunikativ funksiyasi talablari asosida yuzaga kelgan.<sup>2</sup> Arabcha o'zlashmalarning semantik xususiyatlari haqida ularning ma'nolari o'zbek tili zahirida ma'lum va muayyan o'zgarishlarni boshidan kechirgan deb ayta olamiz. O'zlashmalarda ma'no kengayishi, torayishi, ma'no bo'yoqlarining yangi qirralari, ko'chma xarakter olishi kabi bir qator o'zgarishlar yuz bergan.

Arab leksikasidagi aksariyat so'zlar fe'l so'z turkumidan hosil qilingan. Fe'l uch yoki to'rt undoshdan tashkil topgan bo'ladi. Uch undoshli fe'llarning 15 ta bob shakli, to'rt undoshli fe'llarning esa 4 ta bobi mavjud. Har bir fe'l bobi o'z zamoni, har bir zamonda aniq yoki majhul nisbat shakliga ega.

Fe'llardan yasalgan ismlarga masdarlar, aniq va majhul daraja sifatdoshlari, sifatlar, o'rin va payt nomlari, ish quroli nomlari va kasb-hunar nomlari kabilar kiradi. Masdar fe'ldan yasalgan ot bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra ish-harakatning mavhum nomini ataydi va o'zbek tilidagi harakat nomiga mos keladi<sup>3</sup>. Masalan II bob fe'lining masdarini ko'radigan bo'lsak, u to'g'ri fe'llardan تَفْعِيلٌ qolipida, hamzali va illatli fe'llardan esa تَفْعِلَةٌ qolipida hosil qilinadi. Bu shakldan o'zbek tiliga ko'p so'zlar o'zlashgan, jumladan quyidagilar: tabdil, tabrik, tadrij, tafsil, tafsir, taftish, tahdid, tahlil, tahqiq, tahqir, tahrir, tavsif, takbir, tasbeh, tahsil, taxlit, taxmin, tashviq, tashvish, taqdir, taqlid, taqriz, taqsim, taqsir, tahsin, tazyiq, tansiq, tasvir, taklif, tasdiq, talqin, tamsil, tanbeh, tanqid, taqdim, taqvim, tadbir, tanqis, tashviq, targ'ib, tartib, tashkil, tashrif, taskin, taslim, tasnif, tatbiq, tavfiq, tadqiq, tarkib, tajnis, tashxis va shu kabilar. Bu o'zlashgan so'zlardan aksariyati arab tilida boshqa ma'noda, o'zbek tilida boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan:

**Taqsir** - bu so'z qasara fe'lining II bob masdari bo'lib, asli "buyruq beruvchi" ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida esa ulamolarga, amaldorlarga, boylarga hurmat yuzasidan aytiladigan murojaat so'zi sifatida ishlatiladi.

<sup>1</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati.-Toshkent:Universitet. 2003.

<sup>2</sup> Ўзбек тили лексикологияси.-Тошкент: Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти. 1981.

<sup>3</sup> Mirqobil Hasanov. Arab tili. O'quv qo'llanma-Toshkent, Global Books nashriyoti, 2019. 171-bet.

- **Taqsir**, o‘sha katta madrasa-da, domlamiz ham o‘sha katta domla bo‘ladilar. (G‘afur G‘ulom, “Shum bola” asaridan)

**Taslim** - arabcha salima fe‘lining II bob masdari bo‘lib, arab tilida “tabrik”, “taqdim”, “yon berish”, “tutib berish” kabi ma‘nolarni anglatadi. O‘zbek tilida “kurashda, jangda, tortishuvda yengilib, kurashni to‘xtatish”, “mag‘lub bo‘lganini tan olish” kabi ma‘noda ishlatiladi. O‘zbek tilida bu so‘z taslim bo‘l, taslim qil qo‘shma fe‘llari tarkibida qatnashadi.

Vronskiy xatni o‘qib turib, yana tahqir etilgan erga nisbatan o‘zida uyg‘ongan tabiiy hisga beixtiyor **taslim bo‘ldi**. (L.Tolstoy, “Anna Karenina” asaridan)

**Taklif** - arabcha kalafa fe‘lidan hosil qilingan II bob masdari, arab tilida “topshiriq”, “mutelik”, “mehnat” kabi ma‘nolarni anglatadi. O‘zbek tilida esa bu so‘z bilan “muhokama qilish, amalga oshirish uchun taqdim qilingan fikr-mulohaza”, “biror yerga kelish haqidagi chaqiriq” kabi ma‘nolar anglatiladi, ushbu so‘zdan o‘zbek tilida “taklif qilmoq” qo‘shma fe‘li tuzilgan.

Ovqatdan keyin Kirila Petrovich, otda sayr qilaylik, deb **taklif qilgan** edi. (A.S.Pushkin, ”Dubrovskiy“ asaridan)

**Tavfiq** - bu so‘z vafiq fe‘lining II bob masdari bo‘lib, arab tilida “moslashish, ko‘maklashish”, “yutuqqa erishish” kabi ma‘nolarni anglatish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida “dinga e‘tiqod qilish”, “nojo‘ya xatti-harakatlardan tiyilish” kabi ma‘nolarni anglatadi.

Bu gunohkor o‘g‘ilga o‘zing **tavfiq** ber va men qulingni kechir. (Oybek, “Nur qidirib” asaridan)

**Tasvir** - arabcha savvara fe‘lining II bob masdari, arab tilida “suratini chizish”, “ko‘rinishini chizib ko‘rsatish” kabi ma‘nolarni anglatadi, o‘zbek tilida “ko‘rinishini aytib yoki chizib ko‘rsatish” ma‘nosini anglatish uchun ishlatiladi.

Men, aksincha, **tasvir** etib bo‘lmaydigan darajada sevindim. (A.S.Pushkin, “Kapitan qizi” asaridan)

**Tanqis** - naqasa fe‘lining II bob masdari bo‘lib, arab tilida “kamayish, pasayish” ma‘nolarni anglatadi, o‘zbek tilida esa bu so‘z “kamchil” ma‘nosini anglatish uchun ishlatiladi.

Ehtimol, kiyim-kechakdan **tanqisdirlar**. (Uyg‘un, “Hayot qo‘shig‘i”)

**Taqdir** - arabcha qadara fe‘lining II bob masdari bo‘lib, arab tilida “ehtimol”, “nazarda tutish” ma‘nosini, o‘zbek tilida esa “oldindan belgilab qo‘gilgan ko‘rgulik” yoki “yozmish” kabi ma‘nolarni anglatadi.

U Shcherbatskiylarnikiga borish uchun uyga jo‘nadi, chunki bugun Shcherbatskiylarnikida **taqdiri** hal bo‘lardi. (L.Tolstoy, “Anna Karenina” asaridan)

**Tahsin** - bu so‘z arabcha hasana fe‘li II bob masdari bo‘lib, arab tilida “yaxshilash, tuzatish” ma‘nosini anglatadi. O‘zbek tilida “mamnuniyat bilan maqtash”, “ma‘qullab berilgan yuqori baho” ma‘nolarini anglatish uchun ishlatiladi.

Shahodat mufti uning aqliga **tahsin** o‘qiy-o‘qiy nos chekib, o‘z joyiga o‘ltirdi. (A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon” asaridan)

Xulosa qilib aytganda, arab tilidan o‘zlashgan II bob masdar fe’llari o‘zbek tilida ko‘p uchraydi. Ularning qo‘llanish doirasi ham keng, aksariyati o‘z ma’nosida o‘zlashmagan, bugungi kunda ularning turli ma’nolari mavjud. Bu so‘z boyligimiz oshishida katta ahamiyatga ega. Biz ko‘proq izlanib, o‘qish davomida yanada ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lib boramiz. Bu esa tilimizga bo‘lgan munosabatimizning yaxshilanishiga, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashimizga yordam beradi va ular haqidagi fikrlar doiramizni kengaytiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Hasanov M. Arab tili. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: Global Books nashriyoti. 2019. 360 bet.
2. Ibrohimov N, Yusupov M. Arab tili grammatikasi I jild. -Toshkent. 463 bet.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.- Toshkent: „Universitet“ 2003. 600 bet.
4. Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-Toshkent.2006-2008.
5. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси II-III.- Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1959.
6. Ўзбек тили лексикологияси.-Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. 1981.
7. <https://ziyouz.com>.
8. <https://cyberleninka.ru>.